

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ABDIKARIMOVA ZUXRA BAXRAMOVNA

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMIDAN SAMARALI
FOYDALANISH**

08.00.15- Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

UDK:338.23:334.722.012.61-022.51(575.1)

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктори философии (PhD)
по экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) in economic
sciences**

Abdikarimova Zuxra Baxramovna

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik
mexanizmidan samarali foydalanish.....3

Абдикаримова Зухра Бахрамовна

Эффективное использование механизма государственно-частного партнерства в
развитии малого бизнеса и частного
предпринимательства.....27

Abdikarimova Zuxra Baxramovna

Effective use of public-private partnership mechanism in the development of small
business and private
entrepreneurship.....53

E'lon qilingan ishlar ro'yxati

Список опубликованных работ

List of published works.....58

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/30.12.2020.I.16.02 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI

ABDIKARIMOVA ZUXRA BAXRAMOVNA

**KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI RIVOJLANTIRISHDA
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMIDAN SAMARALI
FOYDALANISH**

08.00.15- Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti

**Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertasiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent-2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.4.PhD/Iqt3627 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Urganch davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdiu.uz) va «Ziyonet» Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Salayev San'atbek Komilovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kasimova Fotima Tulkunovna
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Djumaniyazov Umrbek Ilhomovich
iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Buxoro davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2020.I.16.02 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil "8" 04 soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Islom Karimov ko'chasi 49 uy.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (1617 raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Islom Karimov ko'chasi 49 uy.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil "26" 03 kuni tarqatildi.
(2025-yil "18" 03 dagi 12 raqamli reestr bayonnomasi).



G.K. Abduraxmanova
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi,
iqtisodiyot fanlari doktori, professor.

O.Dj.Djurabayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent.

Sh.A.Allayarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, iqtisodiyot
fanlari doktori, professor.

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zaruriyati. Bugungi globallashuv sharoitida dunyo mamlakatlarida innovatsion iqtisodiyot kichik biznes va xususiy tadbirkorlik (KBXT) negizida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) mexanizmi asosida shakllanayotganligi bois davlat va xususiy sektor sherikchilik munosabatlarining dolzarbligi oshmoqda. DXSh loyihalari davlatning rivojlanishiga bog‘liq bo‘lib, “G7” ga kiruvchi mamlakatlardan Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Kanada va Fransiyada sog‘liqni saqlash va ta‘limda, Avstriya, Belgiya, Ispaniya, Daniya, Finlyandiya, Janubiy Koreya, Singapur kabi rivojlangan davlatlarda esa yo‘llar rekonstruksiya, qurilishi sohasidagi KBXTning DXSh loyihalari (75-80 %) yetakchi o‘rin tutadi. Shuningdek, iqtisodiyoti o‘tish davrida bo‘lgan Bolgariya, Polsha, Ruminiya, Vengriya, Xorvatiya va Latviyada port, temir yo‘l kabi transport infratuzilmasini yaratish sohasidagi DXSh loyihalarining aksariyati KBXT sektori tomonidan amalga oshirilmoqda¹. Bu esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan samarali foydalanishning dolzarbligini nomoyon etadi.

Jahonda ijtimoiy ahamiyatli yirik loyihalarni amalga oshirishda innovatsiya sohasi va sanoatning keng tarmoqlarida DXSh mexanizmi davlat sektori va KBXT o‘rtasida institutsional va tashkiliy hamkorlikning muqobil shakli sifatida maydonga chiqib, bu boradagi ilmiy tadqiqotlar ko‘lami kengayib bormoqda. KBXTni barqaror rivojlantirishning yangi mexanizmi bo‘lgan DXShni biznes loyihalariga jalb qilish, bunda davlatning o‘zi tomonidan ijtimoiy ahamiyatli loyihalarga KBXTni taklif qilish, KBXT sektorini rivojlantirishda DXShdan foydalanishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini ishlab chiqish, mahalliy, hududiy va makroiqtisodiy darajada DXSh mexanizmining KBXT sohasiga beradigan multiplikativ ta‘sirini baholash kabi masalalar bu boradagi ilmiy tadqiqotlarning ustuvor yo‘nalishlaridan hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida ham davlat va biznes sektorining o‘zaro istiqbolli hamkorlik mexanizmlaridan biri bo‘lgan DXShning tashkiliy-huquqiy asoslari takomillashtirishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Davlat xususiy-sheriklik to‘g‘risida”gi Qonuni, “Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institutsional bazasini yaratish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Maktabgacha ta‘lim sohasida DXShni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “Jismoniy tarbiya va sport sohasida DXShni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, “Sog‘liqni saqlash sohasida DXShni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlarida mazkur mexanizmni yanada rivojlantirish bo‘yicha qator vazifalar belgilab berilgan. Yuqoridagi qaror va boshqa me‘yoriy hujjatlarning har biri muayyan ijtimoiy-iqtisodiy sohada DXSh munosabatlarini tartibga solishga xizmat qiladi. Ushbu vazifalarni samarali amalga oshirishda KBXT sohasidagi DXSh aloqalarida xususiy sherikning xatarini minimallashtirish, loyihalash va kadrlar

¹Мочальников В. Мировые тенденции развития государственно-частного партнерства. <https://cyberleninka.ru/article/n/mirovye-tendentsii-razvitiya-gosudarstvenno-chastnogo-partnerstva/viewer>

tayyorlash orqali institusional mexanizmlarni takomillashtirish, KBXT sohasida DXSh munosabatlarining iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish, loyiha samaradorligini baholashning statik va dinamik ko'rsatkichlarini ishlab chiqish, DXSh mexanizmi asosida KBXT sohasida amalga oshiriladigan loyihalarni daromadlilik, davlat byudjetiga yukini inobatga olgan holda iqtisodiy qo'llab-quvvatlash tizimi va mezonlari ishlab chiqish, DXShni rivojlantirish poliindekslari asosida davlat faoliyatini baholashning skoring tizimi hamda ssenariy usuli asosida uzoq muddatli prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqish muammolari tadqiqiga yo'naltirilgan ilmiy-tadqiqot ishlari dolzarb ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 12-sentyabrdagi PF-158-son "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonlari, 2024-yil 30-avgustdagi PQ-308-son "O'zbekiston Respublikasida 2024-2030-yillarda davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida", 2018 yil 20-oktyabrdagi PQ-3980-son "Davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirishning huquqiy va institusional bazasini yaratish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertasiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertasiya ishi respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Demokratik va huquqiy jamiyatni ma'naviy-ahloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish" ustuvor yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. KBXT sektorida DXSh munosabatlarining o'ziga xos xususiyatlarini o'rganish, aholi turmush darajasi va bandligi oshishida ushbu mexanizmning ahamiyatini aniqlash, DXShni iqtisodiyot tarmoqlariga, xususan, KBXT sohasiga joriy etishning nazariy-uslubiy jihatlari xorijlik olimlardan E.Yeskombe, E.Farkuxarson, D.Xoll, R.Hemming, J.Delmon F.Barrera-Osorio, H.Patrinios, R.Davies, E.Iossa, D.Martimort va boshqalarning tadqiqotlarida o'rganilgan bo'lsa², MDH olimlaridan V.A.Kabashkin, V.G.Varnavskiy, E.A.Moxortov, A.S.Semchenkov E.A.Dinin, V.V.Maksimov³ larning ilmiy ishlari DXShning dolzarb muammolariga bag'ishlangan.

² Yescombe E.R., Farquharson E. Public-Private Partnerships for Infrastructure: Principals of Policy and Finance. 2nd Edition. Butterworth-Heinemann, 2018. ISBN: 978-0-08-100766-2. Why public-private partnerships don't work. The many advantages of the public alternative. David Hall, Psiru, 2015. Richard Hemming. Public-Private partnership. e IMF Institute and the Joint Africa Institute Tunis, Tunisia, February 28 – March 1, 2006. Jeffrey Delmon. Public-Private Partnership Projects in Infrastructure. Cambridge University Press 978-0-521-15228-0. Felipe Barrera-Osorio. The Impact of Public-Private Partnerships on Private School Performance: Evidence from a Randomized Controlled Trial in Uganda. Economic Development and Cultural Change. 2018. DOI: 10.1086/701229. Patrinios, Harry Anthony. The Role and Impact of Public-Private Partnerships in Education. © 2009 The International Bank for Reconstruction and Development / The World Bank. Peter ED Love, Peter R Davis, Robert Chevis, David J Edwards. Risk/reward compensation model for civil engineering infrastructure alliance projects. Journal of construction engineering and management. 2011/2. Iossa, E., & Martimort, D. (2015). The Simple Microeconomics of Public-Private Partnerships. Journal of Public Economic Theory, 17(1), 4–48. doi: 10.1111/jpet.12114.

³ Кабашкин В.А. Государственно-частное партнерство в регионах Российской Федерации: учебное пособие / Кабашкин В. А. М.: Дело, 2010. В. Варнавский. Государственно-частное партнерство: некоторые вопросы теории и практики. Мировая экономика и международные отношения, 2011, № 9. Е.А.Махортов, А.С.Семченков.

Milliy iqtisodiyot sharoitida KBXTni rivojlantirish va unda DXSh munosabatlari mexanizmidan foydalanish, DXShni hududlar, iqtisodiyot tarmoqlariga joriy etishning ayrim nazariy-uslubiy va amaliy masalalari S.G‘ulomov, M.Pardayev, U.G‘ofurov, B.Salimov, Sh.Ergashxo‘jayeva, A.Samadov, Z.Ashurov, N.Murodova, J.Tohirov, S.Salayev, U.Djumaniyazov, N.Shavkatov, Sh.Omonov, G.Utemuratova, V.Yarashova, B.Ollanazarov, Q.Xalmuratov⁴ kabi olimlarning ilmiy ishlarida kengroq yoritilgan. Ammo, respublikamizda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning asosiy “lokomotiv” laridan biri bo‘lgan KBXT sektorida aynan DXSh mexanizmining barqaror iqtisodiy o‘sish sharoitida aholi farovonligini ta‘minlashdagi ahamiyati, DXSh loyihalarini daromadliligi, davlat byudjetiga bo‘ladigan yukiga nisbatan tabaqalashgan qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish mezonlarini ishlab chiqish, KBXTda DXSh mexanizmini qo‘llash jarayonida xususiy sherikning xatarini minimallashtirish, loyihalash va kadrlar tayyorlash kabi institutsional, iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish, loyiha samaradorligini baholashning statik va dinamik mezonlari, poliindekslari asosida davlat faoliyatini baholashning scoring tizimini ishlab chiqish kabi masalalarning o‘rganilmaganligi tanlangan dissertasiya mavzusining dolzarbligidan dalolat beradi.

Tadqiqotning ish bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertasiya ishi Urganch davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq ilmiy loyiha doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi – kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan samarali foydalanishni takomillashtirish bo‘yicha ilmiy asoslangan tavsiya hamda takliflar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Государственно-частное партнерство как форма отношений власти и бизнеса в России. <file:///D:/Downloads/gosudarstvenno-chastnoe-partnerstvo.pdf>. Дынин Е.А. Риски бизнеса в частно-государственном партнерстве // Дынин Е.А. // Общество и экономика. – 2007. В.В.Максимова. Государственно-частное партнерство в транспортной инфраструктуре. Москва.2010. ISBN 978-5-9614-1143-0.

⁴ Гулямов С.С., Догиль Л.Ф., Семенов Д. Предпринимательства и малый бизнес. - Т.: ТГЭУ, 1996. – с.19-83; У.В.Гафуров. Кичик бизнесни давлат томонидан тартибга солишнинг иқтисодий механизмларини такомиллаштириш. Монография. Молия 2016. Б.Т.Салимов. Кичик бизнесда инновацион маҳсулот ишлаб чиқариш кўрсаткичлари таҳлили ва уларни истикболда ривожланиш тенденцияларини прогностлаш. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali №3 2022. Z.Ashurov, M.Toshxo‘jayev, “Infratuzilma iqtisodiyoti”.Toshkent-2015. Косимова М.С, Эргашходжаева Ш.Ж, Самадов А.Н, Кичик бизнес ва тadbirkorlik. Ўқув кулланма. Тошкент.2010. Ж.Р.Тоҳиров. Давлат-хусусий шерикликни ташкил қилиш ва ривожлантиришнинг принциплари ва уларнинг таълим тизимидаги ўзига хос хусусиятлари “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2021 yil. С.К. Салаев Давлат-хусусий шериклик инновацион ҳамкорлик модели: мазмуни, фарқи жиҳатлар ва асосий белгилар. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” (Economics and Innovative Technologies) ilmiy elektron jurnali. 2022. У. И. Джуманиязов. Давлат-хусусий шерикчилиги асосида корпоратив бошқарувни ривожлантиришнинг айрим назарий-услубий масалалари //“Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. № 3, май-июнь, 2017 йил. 1-12 б. Н.Ш.Шавкатов. Давлат-хусусий шериклик лойиҳалари молиявий ҳолати таҳлили. Иқтисод ва молия. 2020, 4(136). Г.Утемуратова. Таълим хизматлари бозорида давлат хусусий шериклик лойиҳаларини бошқариш ҳолатини таҳлили. Хоразм Маъмун академияси Ахборотномаси, 2022-5-22. В.Ярашова.Государственно-частное партнерство как механизм регулирования транспорта, 2020.Омонов.Ш.Б. Хизмат кўрсатиш соҳасида давлат-хусусий шерикликни ривожлантиришнинг ташкилий-иқтисодий механизмлари. Иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) диссертацияси автореферати Самарқанд-2024. <file:///D:/Downloads/409b9fe4-9d97-4e0c-ae61-9bbc9ff95e19.pdf>;Б.Олланазаров. Давлат-хусусий шерикчилиги механизми асосида туризм соҳасида инвестицион фаолликни ошириш йўналишлари // Хоразм Маъмун академияси ахборотномаси. Хива.2019. - №1. Б.36-41.

KBXT rivojlanishida DXSh munosabatlarining genezisi va rivojlanish tendentsiyalarini, ijtimoiy-iqtisodiy mohiyatini chuqur tahlil qilish;

KBXTni rivojlanishida DXShni amalga oshirishning asosiy shakllari va modellarini tahlil qilish va tasniflash;

rivojlangan mamlakatlarda KBXTning taraqqiyotida DXSh mexanizmidan foydalanishning ilg'or tajribalarini o'rganish;

DXSh huquqiy-institutsional mexanizmlarining KBXT rivojidagi o'rnini tahlil qilish va baholash;

KBXTning rivojlanishida DXSh munosabatlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini qiyosiy o'rganish va baholash;

sotsiologik anketa so'rovnomalari asosida KBXTni rivojlantirishda DXSh munosabatlarining tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari holatini baholash;

O'zbekiston Respublikasi mintaqalari, iqtisodiyoti tarmoqlarida KBXT va DXSh loyihalarining hozirgi holatini baholash va ilmiy asoslangan tavsiyalar ishlab chiqish;

KBXT ni rivojlantirishda DXSh mexanizmini takomillashtirishning skoring tizimini va prognoz qiymatlarini ishlab chiqish.

Tadqiqot obyekti sifatida O'zbekiston iqtisodiyoti tarmoqlarida DXSh munosabatlarini amalga oshirayotgan KBXT subektlari faoliyati tanlangan.

Tadqiqot predmeti sifatida esa KBXT sektorida DXSh munosabatlarini rivojlantirish jarayonidagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar hisoblanadi.

Tadqiqot usullari. Dissertasiya ishida abstrakt-mantiqiy fikrlash, qiyosiy, iqtisodiy, statistik, tizimli tahlil, induksiya va deduksiya, ijtimoiy so'rovnoma, sifatni baholash, SWOT tahlil kabi usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi davlat-xususiy sheriklik aloqalarida xususiy sherikning xatarini minimallashtirish va loyihalashda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan "Maxsus loyihalashtirish kompaniyasi" faoliyatini yo'lga qo'yish orqali institutsional mexanizmlarni takomillashtirish taklifi asoslangan;

davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida amalga oshiriladigan loyihalarining daromadliligi, davlat byudjetiga yukini inobatga olgan holda uch xil ("qizil", "yashil", "sariq") darajali tabaqalashgan loyihalarga ajratuvchi iqtisodiy qo'llab-quvvatlash tizimi va mezonlarini ishlab chiqish taklifi asoslangan;

O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish poliindekslari asosida skoring tizimi orqali davlat-xususiy sheriklik loyihalarida davlatning qo'llab-quvvatlashi holatini "yetuk" ($x > 3,5$), "rivojlangan" ($2,5 < x < 3,5$), "rivojlanayotgan" ($1,5 < x < 2,5$), "paydo bo'layotgan" ($x < 1,5$) mezon qiymatlariga guruhlash orqali tabaqalashgan yondashuv taklif etilgan;

DXShni rivojlantirishda sheriklik loyihalari samaradorligini baholashning dinamik va statik ko'rsatkichlari hamda 2028 yilgacha bo'lgan davrga prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

DXSh mexanizmi asosida amalga oshirilayotgan loyihalarni daromadliligi va davlat byudjetiga yukini inobatga olgan holda qizil (yangi infratuzilmani yaratishda xususiy sektor ishtiroki), yashil (mavjud infratuzilmani boshqarish va ekspluatasiya

qilish) va sariq loyihalar (mavjud infratuzilmani yangilash, kengaytirish va ta'mirlash) kabi uch darajali tabaqalashgan guruhlariga ajratgan holda iqtisodiy qo'llab-quvvatlash tizimi, mezonlari ishlab chiqilgan;

SPV (Special Purpose Vehicle) mexanizmi asosida yuridik shaxs maqomiga ega xususiy sherik bo'lgan KBXT subyektlarining xatarini minimallashtirish, loyihalashni amalga oshirish orqali mamlakatda DXSh munosabatlarining institutsional mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy-amaliy tavsiya va takliflar ishlab chiqilgan;

KBXT sohasidagi DXSh munosabatlarining iqtisodiy mexanizmlarini tahlil qilish, loyiha samaradorligini baholashning statik va dinamik ko'rsatkichlari, rivojlanganlik darajasi poliindekslari asosida davlat sherigi faoliyatini baholashning skoring tizimi taklif qilingan;

KBXT subektlarining DXSh munosabatlari shaffofligini ta'minlash maqsadida DXSh mexanizmini amalga oshirish jarayonida qatnashadigan barcha davlat va nodavlat tashkilotlarining o'zaro integrasiyani yo'lga qo'yuvchi hamda korrupsion holatlarni oldini oluvchi raqamli platforma loyihasi ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi unda qo'llanilgan yondashuv, usullarning maqsadga muvofiqligi, ma'lumotlarning rasmiy manbalar orqali, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi ma'lumotlari va davriy hisobotlardan olinganligi, keltirilgan tahlillar sosiologik so'rovnomalar, matematik-statistika usullari orqali asoslanganligi, xulosa, taklif va tavsiyalarning amaliyotga joriy etilganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati unda ishlab chiqilgan nazariy-uslubiy xulosa va takliflardan joylarda faoliyat yuritayotgan KBXT sub'ektlarini rivojlantirishda DXSh aloqalari tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha tadqiqotlar olib borish hamda tadqiqotning nazariy-uslubiy materiallaridan oliy o'quv yurtlarida "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik asoslari", "Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish", "Davlat-xususiy sherikchiligi" kabi fan va maxsus kurslarni o'qitishda nazariy-uslubiy manba sifatida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati unda ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalardan tegishli vazirlik va idoralar amaliy faoliyatida KBXTni rivojlantirishda DXShning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlaridan "O'zbekiston-2030" Strategiyasida belgilangan 46-maqсадni amalga oshirish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning natijalarining joriy etilishi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan samarali foydalanishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy tavsiya hamda takliflar asosida:

kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasidagi davlat-xususiy sheriklik aloqalarida xususiy sherikning xatarini minimallashtirish, loyihalash va kadrlar tayyorlashda yuridik shaxs maqomiga ega bo'lgan "Maxsus loyihalashtirish kompaniyasi" faoliyatini yo'lga qo'yish orqali institutsional mexanizmlarni takomillashtirish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat Palatasining 2025-yil 27-

yanvardagi 06-16-915-son malumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga qo'llash natijasida DXSh munosabatlarining institusional mexanizmlarini takomillashtirish imkoni yaratilgan;

davlat-xususiy sheriklik mexanizmi asosida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida amalga oshiriladigan loyihalarning daromadliligi, davlat byudjetiga yukini inobatga olgan holda uch xil ("qizil", "yashil", "sariq") darajali tabaqalashgan loyihalarga ajratuvchi iqtisodiy qo'llab-quvvatlash tizimi va mezonlarini ishlab chiqish taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat Palatasining 2025-yil 27-yanvardagi 06-16-915-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga qo'llash natijasida DXSh mexanizmi asosida ishlayotgan KBXT subektlarini tabaqalashgan qo'llab-quvvatlash tizimi va mezonlari ishlab chiqilgan va ushbu taklifni amaliyotga qo'llash orqali KBXTda DXSh mexanizmidan foydalanishning samaradorligini yuqoridagi ko'rsatkichlar tizimi orqali baholash imkoni yaratilgan;

O'zbekiston Respublikasida davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish poliindekslari asosida skoring tizimi orqali davlat-xususiy sheriklik loyihalarida davlatning qo'llab-quvvatlashi holatini "yetuk" ($x > 3,5$), "rivojlangan" ($2,5 < x < 3,5$), "rivojlanayotgan" ($1,5 < x < 2,5$), "paydo bo'layotgan" ($x < 1,5$) mezon qiymatlariga guruhlash orqali tabaqalashgan yondashuv taklif etilgan taklifi O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat Palatasining 2025-yil 27-yanvardagi 06-16-915-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy qilish natijasida davlat-xususiy sheriklik loyihalariga iqtisodiy va moliyaviy yordam ko'rinishlarini ajratilishi hamda DXSh mexanizmidan foydalanish samaradorligini oshirish imkoni yaratilgan;

DXShni rivojlantirishda sheriklik loyihalari samaradorligini baholashning dinamik va statik ko'rsatkichlari hamda 2028 yilgacha bo'lgan davrga prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi faoliyatiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat Palatasining 2025-yil 27-yanvardagi 06-16-915-son ma'lumotnomasi). Ushbu taklifni amaliyotga joriy qilish natijasida iqtisodiyotda umumiy investisiyalar hajmi 2028-yilga kelib optimistik senariy bo'yicha 520 trln so'mni tashkil etishi yoki keyingi 5 yil mobaynida 2,17 barobarga oshishi, 2028-yilda DXSh loyihalari soni 1546 taga va qiymati 5570 mlrd. so'mga etishi hamda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning umumiy bandlar sonidagi ulushi 84 foizga etishi aniqlangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan va ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertasiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi OAKning doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 9 ta maqola, jumladan, 1 tasi xalqaro va 8 tasi respublika ilmiy jurnallarida va 8 ta tezislar chop qilingan.


Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertasiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashkil topgan bo'lib, umumiy hajmi 140 betdan iborat.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi asoslangan, maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi keltirilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertasiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Tadqiqotning **“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tashkil etishning nazariy-uslubiy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tadbirkorlik faoliyatining yangicha shakllaridan biri bo'lgan DXSh munosabatlarinig genezisi, sheriklik munosabatlarining rivojlanish tendensiyalari, KBXTni rivojlantirishda DXShga qarashlar, DXShni tashkil etishning asosiy shakllari va modellari, ilg'or xorijiy mamlakatlar tajribalariga to'xtalib o'tilgan.

2004-yilda Fransiyalik tadqiqotchi Ksave Bezanson o'zining “Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining qurilish tizimi va ijtimoiy obektlar uchun 2000 yillik tarixi” nomli kitobi ni chop etdi. Bundan ushbu munosabatlarning qanchalik uzoq davrlarga borib tarqalishining guvohi bo'lish mumkin. Sheriklik munosabatlarining paydo bo'lishi va genezisini o'rganish ushbu sheriklik munosabatlarining uzoq muddatni qamrab olganligidan dalolat bermoqda. (1-rasmga qarang).



1-rasm. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini evolutsiyasi⁵

⁵ Muallif tomonidan shakllantirildi

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining kelib chiqishi va uning rivojlanib borishini o'rganish davlat va xususiy sektor o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga hos turi bo'lgan sheriklikning mohiyatini tushunib olishda muhim ahamiyat kasb etadi. KBXT ning yangi ko'rinishi sifatida davlat-xususiy sheriklik tushunchasi ijtimoiy hayotga yaqinda kirib kelgan bo'lishiga qaramasdan, ushbu munosabatlarning ildizi juda uzoq davrlarga borib tarqaladi. O'sha paytlarda hali davlat-xususiy sheriklik munosabatlari o'zining eng oddiy ko'rinishidan hozirgi kunga qadar rivojlanib, shakllanib, toboro murakkab ko'rinish olib keldi.

“Davlat - xususiy sheriklik” atamasi ham aynan 1992 yilda Buyuk Britaniyada paydo bo'lib, xususiy-moliyaviy tashabbus konsepsiyasi e'lon qilingandan so'ng, davlat mulkini boshqarishning yangi usuli sifatida e'tirof etilgan. Hozirda sheriklikning ushbu ko'rinishi butun dunyoga yoyilib, Lotin Amerikasi, Shimoliy Amerika, Janubiy Osiyo, Sharqiy va Markaziy Osiyo, Yevropa, Afrika davlatlarida ko'plab sohalarida qo'llanilmoqda.

Ko'plab mamlakatlarda infratuzilmaga bo'lgan miqdor va sifat intilishlarining oshishi bu sohada eski qarashlardan voz kechishni va yangi konsepsiyani qo'llash zaruriyatini qo'ymoqda. Umumun olganda, eski qarash va davlat va xususiy sherik munosabatlaridan iborat yangi paradigma o'rtasidagi bog'liqlikni ko'rsak, jamiyat miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlarni amalga oshirishda, davlat-xususiy sheriklik tushunchasi mutlaqo yangi paradigma hisoblanib, eski paradigmadan o'zining bir nechta ustuvorliklari bilan farq qilmoqda. Demak, endilikda KBXTni rivojlantirish borasida davlat boshqaruvining innovatsion dasturlarini amalga oshirishni va jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan qator vazifalarini xususiy sektor bilan sheriklikda bajarishni taqozo qiladi (1-jadvalga qarang).

1-jadval

Infratuzilmaga yondashuvning eski va DXSh doirasidagi yangi paradigmasi⁶

№	Eski paradigma	Yangi paradigma
1	Davlat barcha muammolarni o'zi hal qiladi.	Davlat faqat umumiy jarayonni nazorat qiladi.
2	Muammoga milliy yechimlar.	Muammoga transmilliy va xalqaro yechimlar.
3	Monopol bozorning mavjudligi.	Liberallashtirish natijasida raqobat muhitining vujudga kelishi.
4	Taklifga yo'naltirilgan bozor.	Talabga yo'naltirilgan bozor.
5	Davlatning moliyaviy resurslaridan foydalanish.	Davlat va xususiy sektorning moliyaviy resurslaridan foydalanish.

KBXT ni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini o'rganish mobaynida uning jahon miqyosida turli nomlar bilan nomlanishga guvoh bo'ldik.


Jumladan, Infratuzilmada xususiy ishtirok – Private participation in infrastructure (PPI)- Jahon banki tomonidan va Janubiy Koreya PPI dasturlarida, P3- Shimoliy Amerikada, Xususiy moliyalashtirilgan loyihalar - Privately-Financed Projects (PFP), Avstraliyada, P-P hamkorlik P-P Partnership, “xarid pariteti” “purchasing power parity”, tushunchasi bilan chalkashlik yuzaga kelmasligi uchun, Xususiy-moliyaviy

⁶ Muallif tomonidan shakllantirildi

tashabbus- Private – Finance- Initiative (PFI), tushuncha Buyuk Britaniyada vujudga kelgan bo‘lib, Yaponiya va Malayziya davlatlarida ham keng miqyosda qo‘llaniladi.

Xalqaro tashkilotlar, turli tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ta‘riflar, shuningdek dunyoning turli mamlakatlarida davlat-xususiy sheriklik munosabatlarini tahlil qilish orqali xulosa qilish mumkinki, davlat-xususiy sheriklik munosabatlari - mamlakatda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishni ta‘minlash maqsadida infratuzilmani tashkil etish, boshqarish, yangilash va kengaytirish borasida davlat va xususiy tomon o‘rtasida muayyan muddatli o‘zaro maanfaatli kelishuv shakli hisoblanadi.

Tadqiqotlarimiz natijasida, davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan foydalanish jamiyat hayotida qator ustuvorliklar kasb etishiga guvoh bo‘ldik (2-rasmga qarang).



2-rasm. KBXTni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklikni amalga oshirish ustuvorliklari⁷


Dunyo miqyosida davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi hamkorlik munosabatlari turli shakllarda rivojlanayotgan mamlakatlarning soni muntazam ravishda oshib borayotganligining guvohi bo‘lish mumkin. DXSh doirasidagi hamkorlik munosabatlari murakkab bo‘lib, ularning turli-tuman ko‘rinishlari va shakllari mavjudligini e‘tirof etish mumkin. Davlat-xususiy sheriklik munosabatlari shakllari 2 xil ko‘rinishda shartnomaviy (xizmat ko‘rsatish shartnomasi, lizing va affirmaj, konsessiya va boshqaruv shartnomasi) va institutsional (davlat-xususiy sheriklik

⁷ Muallif tomonidan shakllantirildi.

qo'shma korxonalari) dan iborat ekanligini ta'kidlash joiz. Dunyoda e'tirof etilgan loyihalarning vazifalari doirasiga qarab davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarining ko'plab modellari mavjudligini e'tirof etish lozim. Ular BOT, BOOT, ROT, BOO, DBO, RBO, DCMF, BTL, RTL, BTO, RTO, DBFO kabi qisqartma nomlar bilan ataladi.

Dissertasiya ishining **“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik munosabatlarining asosiy mexanizmlari tahlili”** deb nomlangan ikkinchi bobida, sheriklik munosabatlarining samaradorligini ta'minlashda, qolaversa, ko'zlangan maqsadga erishishda asosiy omillardan hisoblangan sheriklikning huquqiy-institutsional, tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari, KBXT rivojlantirishda DXSh munosabatlarini mexanizmlarini takomillashtirishni anketa so'rovnomalar asosida baholash masalalariga to'xtalib o'tiladi.

KBXTni rivojlantirishda DXSh munosabatlarida, ishtirokchilarining maqsadlari uyg'unligini ta'minlashda eng muhim va asosiy jihatlardan biri huquqiy-institutsional asoslarning mavjud bo'lishi hisoblanadi. Mamlakatda yetarli sharoit va muhit yaratilgan bo'lsa, shuningdek qabul qilinadigan qarorlar ma'lum yuridik maqomga ega va o'zgarmas bo'lsa ko'zlangan maqsadga erishish imkoniyati oshishi mumkin. Shu sababdan davlat boshqaruvi va tartibga solish mexanizmlari va dastaklarining mavjud bo'lishi sheriklik munosabatlarining ajralmas qismi hisoblanadi.



3-rasm. O'zbekiston Respublikasida DXShni amalga oshiruvchi institutsional birliklar⁸


Ko'pgina mamlakatlarda DXSh munosabatlarini rivojlantirish borasida aynan institutsional dastaklarning mavjud emasligi KBXTni rivojlantirishda DXSh

⁸ Muallif tomonidan shakllantirildi.

amaliyotidan foydalanishda g‘ov bo‘lmoqda. O‘zbekiston Respublikasida esa DXShni amalga oshiruvchi intitutsional birliklarni quyidagicha tasvirlash mumkin (3-rasmga qarang).

DXSh loyihalari muvaffaqiyatining asosiy sabablaridan biri bu “Maxsus loyihalashtirish kompaniyasi” ni yaratishdir. Rivojlangan davlatlarning deyarli barchasida bu tizim allaqachon yo‘lga qo‘yilgan bo‘lib, bunday kompaniya SPV (*Special Purpose Vehicle*) deb ataladi. Maxsus loyihalashtirish kompaniyasi muayyan maqsadlarni amalga oshirish uchun yaratilgan alohida huquqiy maqomga ega bo‘lgan yuridik shaxs sifatida qaraladi va bunday korxonani yaratish bir nechta ustuvorliklar kasb etadi. Xususiyy firmalar DXSh korxonalaridan kafolatlangan minimal daromad oladi (4-rasmga qarang).

Ushbu strategiya katta daromad talab qiladigan infratuzilma loyihalari uchun ko‘proq kapital jalb qilish, shuningdek, davlat obligatsiyalarining global kredit reytingini oshirishga qaratilgan. SPV ning asosiy moliyalashtiruvshilari bu hissadorlar va homiylar hisoblanadi. Ba‘zi hollarda hukumat SPV ning aksiyadori ham bo‘lishi mumkin. Aksiyadorlar DXSh loyihasining tayyorgarlik bosqishlarini moliyalashtirish uchun zarur bo‘lgan boshlang‘ish kapitalni kiritadilar va ularning tavakkalchilik darajasi loyihaga kiritgan o‘z kapitali miqdori bilan chegaralanadi.




4-rasm. DXSh doirasida SPV ni amalga oshirish sxemasi⁹

4-rasmdagi “Eskrov agent” - bu aktiv yoki mablag‘lar bir tomondan boshqasiga o‘tkazilgunga qadar egalik qiladigan ushinchisi shaxs. Eskrov agenti mablag‘larni yoki aktivni ikkala tomon shartnoma talablarini bajarmaguncha ushlab turadi. Eskrov agentlari ko‘pincha ko‘chmas mulk operatsiyalari bilan bog‘liq, ammo ular mablag‘lar bir tomondan boshqasiga o‘tadigan har qanday vaziyatda ishlatilishi mumkin.

Davlat tomonidan moliyaviy qo‘llab-quvvatlashlarni amalga oshirishda davlat va xususiyy sherik o‘rtasidagi munosabatlarning o‘ziga xos turini turkumlash KBXTni rivojlantirishda etakchi rol o‘ynaydi.

⁹ Muallif tomonidan shakllantirildi.



5-rasm. Davlat-xususiy sheriklik loyihalarining turkumlanish ko'rinishlari va maqsadlari¹⁰

Davlat tomonidan moliyaviy qo'llab-quvvatlashlarni amalga oshirishda davlat va xususiy sherik o'rtasidagi munosabatlarning o'ziga xos turini turkumlash KBXTni rivojlantirishda yetakchi rol o'ynaydi. Fikrimizcha, davlat-xususiy sherik o'rtasidagi loyihalarni *qizil loyihalar* (yangi infratuzilmani yaratishda xususiy sektor ishtiroki), *yashil loyihalar* (mavjud infratuzilmani boshqarish va ekspulatatsiya qilish), *sariq loyihalar* (mavjud infratuzilmani yangilash, kengaytirish va ta'mirlash) ko'rinishda turkumlash, DXSh ning infratuzilmadagi ishtirokiga baho berishda, shuningdek, loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashda ahamiyatlilik darajasi ustuvorliklar-ni belgilashga yordam beradi. Buning natijasida davlat tomonidan ajratilayotgan mablag'larning samaradorligiga erishiladi hamda dolzarb ahamiyatga ega bo'lgan infratuzilma loyihalari uchun xususiy sektorni jalb qilish imkoniyatlari kengayadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston-2030" strategiyasi to'g'risida" gi Farmonning- II- Barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash yo'nalishi 46-maqсадida ham DXSh asosida amalga oshiriladigan loyihalarni daromadlilik va davlat byudjetiga yukini inobatga olib, ularni tasniflash hamda loyiha yo'nalishlari bo'yicha boshqarish tizimini joriy etish belgilab qo'yilgan.

DXSh munosabatlari bilan bog'liq tashkiliy masalalar yakunlangach, loyihani amalga oshirishdagi eng muhim bosqich loyihani iqtisodiy imkoniyatlarini baholashga e'tibor qaratiladi. Bunda loyihani amalga oshirish uchun boshlang'ich mablag'lar, kiritilayotgan investitsiya loyihasi o'zini oqlashi yoki aksinchaligi ya'ni investitsiya mablag'laridan foydalanish samaradorligi masalalariga e'tibor qaratiladi

2-jadvalda biz mavjud investitsiya samaradorligini baholash formulalari yordamida ijtimoiy sohadagi 5 ta loyiha asosida DXSh aloqalarining iqtisodiy samaradorlik ko'rsatgichlari hisoblab chiqildi.

¹⁰ Muallif tomonidan shakllantirildi.

2-jadval

Ijtimoiy hayotning turli sohalarida davlat-xususiy sheriklik loyihalari¹¹

№	Xususiy sherik	Loyiha konsepsiyasi tarmog'i	Loyihaning maqsadi	DXSh ning amal qilish muddati	Loyihaning daromad manbai
L1	"SOG'LOM KELAJAK AVLOD MEDICAL" MChJ	Sog'liqni saqlash	Loyihalashtirish, rekonstruksiya qilish, moliyalashtirish, foydalanish va xizmat ko'rsatish	10 yil	Foydalanganlik uchun to'lov
L2	"DOKTOR-TOHA" XK	Sog'liqni saqlash	Loyihalashtirish, qurish, moliyalashtirish va xizmat ko'rsatish	15 yil	Foydalanganlik uchun to'lov
L3	"AMIRSHOH777" MChJ	Sport	Loyihalashtirish, ta'mirlash, qurish, moliyalashtirish, foydalanish va xizmat ko'rsatish	30 yil	Foydalanganlik uchun to'lov
L4	"NUMBER ONE ENTERPRIZE"	Bandlik	Rekonstruksiya, yotoq-xona va oshxona tashkil qilish, avtotransport va mebel inventarlarini sotib olish, foydalanish, qaytarish	10 yil	Foydalanganlik uchun to'lov
L5	"AL-BEHRUZ QURULISH INVEST" MChJ	Sog'liqni saqlash	Loyihalashtirish, qurish, moliyalashtirish va xizmat ko'rsatish	15 yil	Foydalanganlik uchun to'lov

2-jadval ma'lumotlariga ko'ra, mamlakatda DXSh loyihalari sog'liqni saqlash, bandlik, sport kabi sohalarida amalga oshirilib, loyihalarining amal qilish muddatlari asosan 10-30 yilgacha bo'lgan davrni tashkil qilmoqda. Bunda, ko'rsatilgan barcha DXSh loyihalarida loyihaning daromad manbai sifatida foydalanganlik uchun to'lov ko'rsatib o'tilmoqda.

3-jadval

DXSh loyahasining moliyaviy-iqtisodiy ko'rsatkichlari (mln so'mda)¹²

№	Ko'rsatkichlar	L1	L2	L3	L4	L5
1	Jami investision xarajatlar	1994.29	3164.92	9175	960	6500
	shundan:					
1.1	Kapital qo'yilmalar va boshqa xarajatlar	1802.77	3129.67	8650	920	6351.7
1.2	Ekspulatsiya xarajatlari	191.53	35.25	525	40	148.3
2	Loyihadan kutilayotgan yillik daromad (Foydalanganlik uchun to'lov)	1500	1900	9795	803	3900

Keltirilgan ma'lumotlar va formulalar yordamida DXSh munosabatlarining iqtisodiy samaradorligini aniqlab olamiz. Bunda biz foyda normasi 35% deb faraz qilamiz. Tadqiqotlarda rentabellik ko'rsatkichi 30% dan yuqori loyihalar istiqbolli deya baholangan. Fikrimizcha, DXSh loyihalarda davlatning soliq imtiyozlari va

¹¹ Muallif tomonidan turli DXSh loyihalari konsepsiyalari asosida shakllantirildi.

¹² Muallif tomonidan turli DXSh loyihalari konsepsiyalari asosida shakllantirildi.

boshqa ko‘rinishdagi yordamlari natijasida loyiha rentabelligi ancha yuqori hisoblanadi. Qolaversa, fikrimizcha, loyihaning rentabellik darajasi investisiyalarning depozit qiymatidan yuqori bo‘lishi lozim.

4-jadval

DXSh loyihalarini iqtisodiy baholash ko‘rsatkichlari natijalari¹³

№	Ko‘rsatkichlar	L1	L2	L3	L4	L5
1.	PP	4 yil	5 yil	3 yil	4 yil	5 yil
2.	ARR	26.3%	21.01%	37,4%	29,3%	21%
3.	NPV	798.45	1023.89	15657.13	534.78	1884.06
4.	IRR	23%	19.57%	37.36%	26.48%	19.56%
5.	PI	1.4	1.32	2.71	1.56	1.29
6.	DPP	6 yil	8 yil	4 yil	5 yil	7 yil

4-jadval ma‘lumotlarini tahlil etadigan bo‘lsak, barcha loyihalarda loyihaning qoplanish muddatlari loyihaning amal qilish muddatidan kam ekanligini kuzatish mumkin. Bu albatta ijobiy holat hisoblanib, investor tomonidan loyihadan kutilgan daromad olishni kafolatlaydi. Shuningdek, NPV ko‘rsatkichlari ham musbat bo‘lib, loyiha amalga oshirilish imkoniyati bor ekanligini ko‘rsatmoqda. Yana bir muhim ko‘rsatkichlardan biri, PI bo‘lib, uning 1 dan katta bo‘lishi ijobiy holat deya baholanadi. PI ko‘rsatkichi boshqa loyihalarga qaraganda L3 da yuqoriroq ekanligiga guvoh bo‘lish mumkin. Bu loyihaning jozibadorligi yuqori ekanligidan dalolat beradi.

Tadqiqotlarimizga ko‘ra, mobaynida DXSh loyihalarini o‘rganishda sheriklik shartnomalarining konsepsiyasining birortasida iqtisodiy ko‘rsatkichlar haqida ma‘lumot berilmaganligining guvohi bo‘ldik. Bu albatta, hali xususiy sherikning etarlicha moliyaviy-iqtisodiy bilimlarning etarli emasligidan, qolaversa sheriklik munosabatlari mamlakatda hali to‘liq rivojlanmaganlik holati bilan bog‘liq. Shu sababdan, davlat sherigi tomonidan xususiy sherikga moliyaviy-iqtisodiy maslahat va tushuntirish ishlarini olib borish kerak. Qolaversa, masalaning ikkinchi tomoni iqtisodiy indikatorlarning kiritilishi xorijiy investorlarni jalb qilishda muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki, xorijlik investor loyihaning istiqbolini aynan shu ko‘rsatkichlar orqali baholaydi.


DXSh loyihasini amalga oshirishning tashkiliy masalalarini takomillashtirish borasida so‘rovnoma o‘tkazildi. Bunda, respondent sifatida Xorazm viloyatida DXSh asosida tashkil etilgan 45 ta maktabgacha ta‘lim muassasalari rahbarlari tanlab olindi¹⁴.

So‘rovnomada qatnashgan respondentlarning 15,9 % i DXSh loyihasi imzolagan paytda o‘zlarining talab va istaklari inobatga olinmagan ekanligini qayd etgan. Shuningdek, respondentlarning 20 % DXSh jarayonini tashkillashtirish jarayonini unchalik shaffof emas deb, 4,4 % esa umuman talabga javob bermasligini qayd etishgan. Tadbirkorlarning 42,2 % ba‘zi holatlarda bezovtalikga duch kelishganligini va 6,7 % hatto loyihadan voz kechmoqchi bo‘lishganligini ta‘kidlashgan. 25 %

¹³ Muallif hisob-kitoblari natijasida olindi.

¹⁴ https://docs.google.com/forms/d/e/1FAIpQLSdxljVJLKxPif_IPpy-Zqq7neBLtadjOCYpiuvApVw6n4UrdA/viewform?usp=sf_link

tadbirkorlar davlat sherigi shartnomada ko'rsatilgan qoidalarini buzsa qanday sanksiyalar borligini bilmasligini va 13,3 % tadbirkorlar esa yetarlicha moliyaviy bilimlarga ega emasliklarini ta'kidlashgan. DXSh munosabatlari bo'yicha huquqiy, tashkiliy, iqtisodiy maslahatga muxtojmisiz, degan savolga respondentlarning 40 % i muhtoj ekanligini va qayerdan olishni bilmasligini bildirishgan. Shuningdek, tadbirkorlarning 22,2 % davlat sherigi sifatida loyihada ishtirok etayotgan mutaxassislar bilimini yetarli darajada emas deb, 2,2 % esa umuman qoniqarsiz deb baholashgan (6-rasm).



6- rasm. KBXTni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik doirasida tadbirkorlar duch kelayotgan muammolar¹⁵

Fikrimizcha, ushbu muammolarni bartaraf qilish borasida quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'lgan bo'lardi:

- DXSh munosabatlarini tashkillashtirish jarayonida shaffoflikni ta'minlash maqsadida DXSh ni boshqarishning elektron platformasini yaratish, shuningdek bu platformaga sheriklik munosabatlariga xizmat qiluvchi barcha idora va tashkilotlarni bog'lash;

- DXSh munosabatlariga xizmat qiluvchi organlar faoliyatining me'yoriy-huquqiy bazasining yangi tahrirlarida huquq, majburiyati va javobgarligini aniq belgilash;

- DXSh munosabatlarida imtiyozlarni ajratish mezonlarini aniqlash va bunda loyihaaning ko'lamini va ahamiyatiga etibor qaratish;

- DXSh munosabatlarida sanksiyalar tizimini ishlab chiqish;

- oliy ta'lim tizimida DXSh doirasida kadrlar tayyorlash masalasiga ahamiyat qaratish

- tadbirkorlar uchun davlat tomonidan konsalting xizmatlarini ko'rsatish.

¹⁵ O'tkazilgan so'rovnomaga asosida muallif tomonidan shakllantirildi.

O‘ylaymizki, yuqoridagi vazifalarni hal qilish DXSh doirasida mavjud muammolarni yumshatishga ko‘maklashadi.

Dissertasiyaning **“Yangilanayotgan O‘zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmidan samarali foydalanish yo‘nalishlari va istiqbollari”** deb nomlangan uchinchi bobida sheriklik munosabatlarining O‘zbekiston iqtisodiyotiga kirib kelish zaruriyati, kelajakda mamlakat iqtisodiy-ijtimoiy hayotida sheriklik munosabatlarini amalga oshirish yo‘nalishlari, KBXT ni rivojlantirishda DXSh ning SWOT tahlili, davlatning sheriklik munosabatlarini qo‘llab-quvvatlashning skoring tizimini ishlab chiqish va KBXT ni rivojlantirishda DXSh munosabatlarini prognozlash masalalariga to‘xtalib o‘tiladi.

Mamlakatda aholining ehtiyojlarini qondirish maqsadida infratuzilmani tashkil etish va unda sifatni ta‘minlash davlat byudjeti uchun yetarlicha *“Iqtisodiy yuk”* va qiyinchiliklarni tug‘diradi. Aholi ehtiyojlari to‘xtab qolmagan bir davrda davlat byudjetidan infratuzilma borasida mablag‘larning ajratilishi byudjetning ojizlanib borishiga olib keladi. Bu muammoni kichik biznes va xususiy tadbirkorlik imkoniyatlari orqali hal etish mamlakat uchun qator imkoniyatlar eshigini ochib beradi.

Ayni shu maqsadda mamlakat iqtisodiyotida yangi fenomen DXSh tushunchasi vujudga keldi. O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida ushbu tushunchaning kirib kelishi davlat boshqaruvida keng ko‘lamli islohatlarni boshlab berib, mamlakatning iqtisodiy o‘rinishida to‘sqinlik qilishi mumkin bo‘lgan asosiy omillar transport, energetika, kommunal xizmatlar kabi infratuzilma tarmoqlarining rivojlanishiga shuningdek, ushbu tarmoqlarda infratuzilma ob‘ektlarini rivojlantirish va modernizasiya qilish bo‘yicha zarur investision loyihalarni amalga oshirish uchun investisiyalarni jalb qilishda etakchi rol o‘ynashi maqsad qilingan.


5-jadval

2024 yil yanvar holatiga O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan DXSh loyihalari¹⁶

№	Davlat-xususiy sheriklik loyihalari sohalar kesimida	Loyihalarning soni (ta)	Loyihalarning qiymati mln AQSh dollar
1.	Ta‘lim	3	146,70
2.	Kommunal	91	1500,99
3.	Isitish tizimi	220	125,57
4.	Ekologiya	67	123,90
5.	Transport	2	94,23
6.	Sog‘liqni saqlash	52	54,42
